



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA _____ FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
YANGI O‘ZBEK ADABIYONI FANIDAN

Kurs ishi

MAVZU: Said Ahmad – hikoyanavis (Mustaqillik davri ijodi
misolida)

BAJARDI: Meliyeva Umida.
401-guruh talabasi.
TEKSHIRDI: dots. Soliyev A.

SAMARQAND – 2012

Reja:

I.Kirish

II . Asosiy qism:

- a) Said Ahmad hikoyalarining mavzu ko‘lami;
- b) Adib hikoyalaridagi obrazlar tavsifi;
- d) Said Ahmadning hikoyachilikdagi mahorati;

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Vatanimizda istiqlol e'lon qilinganda atoqli adibimiz Said Ahmad 72 yoshda edi. Keksa bo'lishiga qaramay bu ijodkor hammani lol qoldirib, xuddi yoshlardek yeng shimarib, g'ayrat-shijoat bilan ijodiy hamda ijtimoiy faoliyatini davom ettirdi. Mustaqillik sharofati yozuvchiga chinakam ilhom berdi. Said Ahmadning mustaqillikkacha bo'lgan ijodi namunalari ham tom ma'noda o'zbek adabiyotining nodir gavharlari qatoridan joy olishga ulgurgan edi.

Adib yaratgan "Kelinlar qo'zg'oloni" dagi ona va o'g'lonlar, qaynona va kelinlar, "Kuyov" kamediyasidagi ota va qizlar orasidagi hazil-mutoibalar, jo'shqin va quvnoq, biroz mubolag'ador xalqona yumor bilan yo'g'rilgan ziddiyatlar ifodasi xx asar o'zbek oilaviy-maishiy turmishining betakror bir ko'zgudagi aksi sifatida qimmatlidir. "Ufq" dagi ota va o'g'il – Ikromjon va Tursunboy , Inoyat oqsoqol va Nizomjon ziddiyatlari bu yirik asarning fojiiyaviy pafosini tashkil etadi. Shu bilan birga yozuvchining qator hikoyalari "Qoplon", "Sobiq", "Tog' afsonasi", "Yalpiz hidi", "Sunbul" kabilar kitobxonlarimiz qalbidan chuqur joy oldi. Yozuvchining adabiyotimiz va xalqimiz oldidagi buyuk xizmatlari uchun mustaqillik yillarida "O'zbekiston qahramoni" unvoni bilan taqdirlanishi ayniqsa, e'tiborga sazovordir.

Chunki badiiy iste'dod keksalikni tan olmaydi, degan naqlni adib amalda isbot etdi. Istiqlol arafasidagi Shinjon safarini mustasno etganda Vatanidan tashqariga chiqmagan adib Hindiston, Amerikalarga safarlar qildi, odatdagidek, ona yurtini kezishda davom etdi, safar ta'surotlari, istiqlol yillaridagi o'zgarishlar haqida ko'plab maqolalar, ocherklar yozdi. Mustaqillikning quvonchli yillarida ham,

gʻanimlar qutqusi tufayli yurt boshiga tushgan qaygʻuli damlarda ham hamisha qatʻiyat bilan bugungi istiqlol fidoilarining oldingi safida turdi. Oqsoqol adibning turli anjumanlarda, radio va televideniya­dagi chiqishlarida topib aytgan har bir obrazli dono soʻzi xalqimiz qalbiga yetib borgan. Butun vujudi,tani-joni adabiy isteʼdod ziyosi bilan yoʻgʻrilgan, faqat adabiyot, ijod uchun tugʻilgan, botiniy dunyosi oʻzida ham fojeiy, ham quvnoq, hayotbaxsh hazil-mutoiba, xalqona kulgini mujassam etgan, uzoq yillik mashaqqatli umri davomida boshiga tushgan ogʻir koʻrgulik asoratlarini, misilsiz fojialarni, judolik, yolgʻizlik istiroblarini hazil-kulgi bilan oʻtgan, bu alloma zot xx sar oʻzbek adabiyotida noyob hodisadir. 50-yillardagi qatagʻon zahmati, 1979-yilning keyingi ayriliq azobi yozuvchi ruhiyatiga qattiq taʼsir etsa-da, u ijoddan toʻxtamadi.

Adib istiqlol yillarida hikoya janrining yetuk namunalarini yaratdi. “Ot bilan suhbat”, “Qora koʻz majnun”, “Azroil oʻtgan yoʻllarda”, “Sarob”, “Borsa kelmas darvozasi”, “Rostgoʻy posbon”, “Ta­qdir, taqdir, buncha shafqatsizsan?”, “Uchinchi minora”, “Oftob oyim”, “Azob”, “Buqalamun bilan uchrashuv” kabi hikoyalar shular jumlasidandir. Bu hikoyalar vatanimiz adabiy-madaniy hayotida ham jiddiy hodisa boʻldi. 1988-yilda chop etilgan “Yoʻqotganlarim va topganlarim” kitobi sal burunroq maydonga kelgan K. Qahhorovanning “Chorak asr hamnafas”, Z.Saidnosirovaning “Oybegim mening” asarlari bilan birgalikda xx asr oʻzbek adabiyotining yorqin,oʻziga xos jonli lavhalarini tashkil etadi. Ularni bemalol jahon adabyotining mashxur namoyandalari haqida bitilgan shu xildagi essi-xotiralar qatoriga qoʻyish mumkin. Bu kitob adbiyotimizning mashʼum tatalitar

rejim zamonlarida bosib o'tgan mashaqqatli va ziddiyatli yo'li adiblarimiz qanday og'ir sharoit, vaziyatlarda yashab ijod etgani, o'shanday zamonlarda ham asl insoniy fazilatlarini saqlab qolgani, noyob badiiy durdonalar yaratishga erishgani to'g'risida haqqoniy tasavur beradi. Kitob muallifi ulkan allomalarni quriq himoya qilish, ular sha'niga hamdu sanolar yog'dirish yo'lidan bormaydi, ularni hayotda qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlaydi, shaxsiyatidagi, ijodidagi ojiz, ziddiyatli o'rinlarni, ularning injiqliklarini ham ro'yi-rost aytadi.

Mustaqillik yillarida Said Ahmadning "Qorako'z majnun" (2001), "Kiprikda qolgan tong" to'plamlari nashr etildi. Ushbu to'plamdan joy olgan hikoyalar yozuvchigagina xos bo'lgan xususiyatlarni jo etgani bilan xarakterlidir.

Ma'lumki, Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi – avlodlar silsilasi, otalar va bolalar muammosi, ijtimoiy ruh alohida o'rin tutadi. Adibning keyingi hikoyalarida ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin bir tarzda namoyon bo'lgan. "Qorako'z majnun", "Sarob", "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyalarida ona va farzand, ota va o'g'lonlar o'rtasidagi keskin munosabatlar ildizi asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkurasi, ahloqiy aqidalarga borib tutashadi, jamiki ko'rguliklar, fojialar mash'um siyosatning mudhish oqibati tarzida ko'rsatiladi. Har bir yozuvchi saralariga e'tibor qaratganda u yaratgan ijod namunalari o'sha yozuvchining o'ziga xos tomonlarini, uslubini belgilab beradi. Said Ahmad hikoyalarining o'ziga xos tomoni esa muhim xayotiy masalalarni hajman kichik bo'lgan hikoyaga moslab kirita olishi bilan xarakterlanadi. Masalan,

“Qorako‘z majnun” hikoyasida iymon-e‘tiqodli, go‘zal inson alomat onahonng bu yorug‘ dunyodan armon, alam-o‘kinchlar bilan vidolashishiga sabab bo‘lgan oq padar o‘g‘lon milliy-ahloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir. Yozuvchining o‘ziga xos tomoni shuki, u fojeiy voqeani tasvirlashda ham tasvir obyektiga “bir chimdim kulgi”ni qistirib o‘tadi. U xox satirik xox yumor bo‘lsin, hikoya g‘oyasini ochishga xizmat qilsa, 2-dan o‘quvchini zeriktirmaydi. “Qorako‘z majnun “ hikoyasida ham shunday holatni ko‘rish mumkin. Yani uyidan ketgan tog‘ani topip kelish maqsadida ketgan Anvar Bo‘rixon haqida shunday gap topip keladi: “– Buvijon, tashvishlanmang tog‘amning ishlari “besh”. Ro‘zg‘ori but, tirikchilikdan kami yo‘q Uchta bolasi bor. O‘zi o‘zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o‘rischa gaplashdi. Bitta sog‘in echkisi, to‘rtta qanor qopdek cho‘chqasi, o‘ntacha cho‘chqalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo‘chka–bo‘chka samagon aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog‘amni “Bo‘rixon” demay, “дядя Borya” deb chaqirishar ekan. Bu gaplarni eshitgan kampir yer yorilmadi-yu yerga kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-e, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi-ya! Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shohi sindindi”.

Bu tasvirni o‘qigan kitobxonda Anvarning soddalik bilan aytgan gaplariga nisbatan kulgi holati paydo bo‘lsa-da, darrov uning o‘rnini achinishga o‘hshash his chulg‘ab oladi. Bu yerda yozuvchi mahorati ham shundaki, mana shunday qarama – qarshi hislarni kitobxonga yuqtira oladi. Said Ahmadning poetik mahorati uning hikoyalarida

yaqqol aks etadi. “Uslub odam demakdir” degan naql bor. Yozuvchi tabiatan qanaqa bo‘lsa, asarlari ham shunaqa bo‘ladi, diyishadi. Bu ta’birni ehtimol, hamma yozuvchilarga birdek tadbiq qilish qiyindir, ammo Said Ahmadga bemolol nisbat bersa bo‘laveradi. Adib tabiyatidagi lirik va yumoristik hislat yo yozuvchining tasvir uslubiga, asariga shundaygina ko‘chadi qo‘yadi. Uning ijodiga nazar tashlaganda bir- biri bilan bog‘liq ikki uslubiy yo‘nalishni ko‘rishimiz mumkin. Said Ahmad ham lirik, ham yumorist yozuvchi. Said Ahmad hikoyalaridagi ajoyib bir xususiyat tabiat tasviridir. “Qorako”z majnun” hikoyasida tabiat quydagicha tasvirlanadi: “Sentabr oyoqlab suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola- baqra tashlab yuborgan piyolami choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turibdi. Qirg‘oqlar zah tortib ekin-tekin suv so‘ramay qo‘ygan palla. Qo‘shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib yolvorishlari eshitilib turibdi”.(O’sha asar 90 – bet) tabiat tasvirining jonli holatini yozuvchining barcha hikoyalarida ko‘rish mumkin. Adib hikoyalarini yaratishda tildan g‘oyat ustalik bila foydalanadi. Xalq tilida uchraydigan maqol va matallar, ibratli so‘z va naqlar bilan birga har – xil qochirim, tak ma’noli so‘zlarni ham qo‘llaydi. Bular albatta obrazlar harakterini ochishga va hikoyani jonli bo‘lishga sabab bo‘ladi. S. Ahmad hikoyalarining syujeti qiziqarli va hayoti haqiqatga asoslanganligini uning “Sarob”, “ Azroil; o‘tgan yo‘llarda”, “Borsa kelmas darvozasi” va shu kabi hikoyalarida ham ko‘ramiz. “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi syujetidan o‘rin olgan lavhalar kitobhon ruxiyatini larzaga solmay qo‘ymaydi. Adib bunda badiiy

to‘qima va hayot xaqiqatini shu darajada bir-biriga omuhtalashtirib yuboradiki, natijada, hikoya badiiy jihatdan yetuk asar xususiyatini oldi. bunday tasvir usuli esa Said Ahmadning badiiy mahoratini ko‘rsatib beradi. Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi syujetning qiziqarliligi, uslubning rovanligi, tilning pishiq va obrazliligi bilan o‘quvchilarga g‘oyat manzur bo‘lgan. Yozuvchi birgina 1999-yilda 15 tacha hikoya va ocherk yaratgan. Bular haqida fikr yuritib adibning o‘zi: “ Mening o‘ylashimcha va ko‘plab gazethonlar fikricha, ushbu hikoyalar so‘ngi yillarda yaratilgan eng yaxshi hikoyalar turkumi boldi”. – deb yozgan edi.

Yozuvchi hikoyalarida mavzu tanlashda, avvalo, hayotiy haqiqatlarga, boshdan o‘tkazganlariga tayangan. Mutaqillik yillarida yaratilgan hikoyalari xususida fikr yuritar ekanmiz, 2001-yilda nashrdan chiqqan “Qorako‘z majnun” nomli hikoyalar to‘plami diqqatga sazovordir.

“Sarob” hikoyasi mavzusi asar epigrafidayoq o‘z mohiyatini ko‘rsatadi. Ya’ni hikoya epgrafi qilib “Ota qarg‘ishi misoli o‘q-u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi” jumlasini olinadi. Hikoyada fojeiy voqia- o‘g‘il bilan ota orasidagi mudhish munosabatlar bu yorug‘ dunyoning naq do‘zaxi ichida-mustabid tuzum qurbonlari-mahbuslar jam bo‘lgan jezqozon lagerlaridan birida o‘z intihosiga yetadi. Mustabid tuzumning millatga qarshi qaratilgan riyokorona kurash usulini qarangki, ular norasida o‘g‘londan zamon qahramoni Pavlik Morozov izdoshi yasab, millatparvar ziyoli otaga qarshi kurashga soladilar, ota ustidan kerakli ma’lumot yig‘ishga .erishadilar. Shu tariqa ota xalq dushmaniga chiqib qamoqqa olishadi,

uning o'g'loni esa qahramonga aylanib shon shuhratga burkanadi. Taqdiri azalning hukmi, totalitar rejim o'yini oqibatini qarangki, provardida "Dushman", "Vatanparvar" o'g'il lagerda yuzma-yuz keladilar. Ko'rguliklar, jabr zulmlar tufayli ota yurak oldirib qo'ygan bo'lsa-da

, u iymon – e'tioqodiga vijdoniga gard yuqturmagan. Chehrasidan o'sha samimiyat, yoqimtoylik, donolik . O'g'lon esa nogiron ayanchli telba bir qiyofada. Lagerda ham bolalikda orttirgan hunari – sotqinlikni davom ettiradi. U otasini tanimaydi, taniy olmaydi.. O'g'lini bu holatda ko'rish – ota uchun naqadar og'ir! Bundan-da dahshatlisi o'g'il ota ko'zi oldida ming azob bilan jon taslim qiladi, janozasiz bekafan ko'miladi.

Bunday mudhish xodisalar, fojei qismatlar haqida yozish oson emas, albatta. "Sarob" adibning lager hayotidan olib yozgan ilk asari, hikoyadagi roviy – mahbus rassom yozuvchining o'zi. Yozuvchi 50-yillar boshlarida hikoyada tasvir etilgan lagerda bo'lgan, bu hayotni ichdan biladi. Shunday bo'la turib, u nega bu haqda uzoq yillar yozmadi. Ehtimol qo'rquv saltanati bunga yo'l bermagandi ehtimo mudhish hodisalar haqida yozish azobi-istirobi uni cho'chitgandir. Har ikki taxminda ham asos bor, faqat mustaqillik yillaridagina vujudidagi qo'rquv saltanati chekinib, lager hayotidan dadil so'z ochishga jur'at eta oldi, o'zi uchun qanchalik azob bo'lmasin lager hayotiga oid xotiralarni, o'sha mudhish hodisalarni qog'ozga tushirishga jazm etdi. "Borsa kelmas darvozasi", "Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?", "Oftob oyim" kabi turkum hikoyalar ham shu tariqa maydonga kelgan. Ushbu hikoyalarni bog'lab turuvchi ip bu – qatag'on qurbonlari

makoni bo'lmish lager hayoti voqealari, uning ayanchli tasviri edi. Hamdo'stlik mamlakatlari xalqlari birinchi galda rus adabiyotida lager hayoti to'g'risida jahonga mashhur asarlar bor. O'zbek adabiyotida ham ayrim yaxshi roman va qissalar mavjud. Totalitar rejim hukmron bo'lgan mamlakatni Gulag orollariga, saraton korpusiga qiyos qilishlar bo'lgan. Said Ahmadning bu mavzudagi hikoyalari mavjud asarlardan baralla ajralib turadi. Avvalo, ular o'zbekona milliy ruh bilan yo'g'rilgan, lager dahshatlari hech kimnikiga o'xshamaydi-ya, Said Ahmadchasiga o'zbekona bir nigoh bilan idrok va talqin etadi.

“Borsa kelmas darvozasi” hikoyasi ham shu mavzuda ekanligini ta'kidladik, bunda “xalq dushmani” qizining yig'lab aytgan qo'shig'idan shunday satrlar epigraf-bosh so'z qilib keltiriladi:

Bu vatan qanday vatan dir, har go'shasida turmalar,
Qo'ngani bir yer topolmay osmonda yig'lar turnalar...

Vatanning o'sha yillardagi manzarasini faqat Said Ahmadgina shu tarzda o'ta milliy, jonli, betakror tarzda ifodalashi mumkin.

Hikoyada ozod bo'lish vaqti kelgan Dadajonga maxsus kengash yana besh yil qamoq jazosini berishi, “alvasti ko'prik”da yeti kishining otilishi, qahramonning lagerda ko'rgan azob uqubatlari tasvir kitobxonni ham larzaga soladi. Hikoyani “xalq dushmaning qizi kuylagan qo'shiq bilan tugatadi:

Siz asr bo'lgan qafasni tishlarim birlan buzay,
Buzmasam maxshar kuni bag'rimni armon tirnalar...

Bu hikoya mavzusi ham yozuvchi hayotidan olingan voqealardan olingan.

Yuqoridagi bayt adibning ushbu turkum hikoyalaridagi boshqa bir g'oyat muhim jihatga ishoradir. Asarlarda qalamga olingan bir-biridan mudhish, malomatli, g'am-g'ussaga to'la lavhalar bag'ridan qandaydir odamga dalda beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan qudrat, zulmatni yoritadigan sirli-sehrli nur barq urib turadi. Davr shafqatsizliklari tufayli aksar maxbuslar beshafqat toshbag'ir kimsalarga aylanib ketganlar.

Ayni paytda o'sha beshafqat zotlar goho Bandai ojiz-inson bolasi sifatida o'zligiga qaytib, dilkash suhbatlar quradilar, o'zaro hazil mutoibalarga kirishadilar, toshga aylangan bag'rlar yumshab, tun chehralarda tabassum paydo bo'ladi.

Yozuvchining benazir yumoristik iste'dodi musibatlar maskanida ham kulgu, hazil-mutoibalar uchun ham imkon topadi. Eng muhimi deyarli har bir hikoyada o'zligini, qalbidagi imon-e'tiqod, ona-yurt, o'zgalarga himmat, muruvvat tuyg'usini yo'qotmagan "boshi toshdan", alomat matonatli insonlarga duch kelamiz. "Taqdir, taqdir buncha beshafqatsizsan?" hikoyasi ham yuqoridagi ikki hikoyaga mavzu jihatdan o'xshash. Bu asar yozuvchining "Ko'z yoshi tomgan hikoyalar" turkumiga kiradi. Hikoyalar lager hayotining 1953-yilning voqealari qalamga olinadi. Hikoya "Borsa kelmas darvozasi"ning mantiqiy davomi. Bunda necha-necha aziz insonlarning xor-zorlikda o'lib ketib, Generalning itini esa izzat ikrom bilan ko'mishlari hikoyasi roviyni g'azabga keltirishi, 72 odamning yong'indan bo'g'ilishini indamay tomosho qilib o'tirgan Dnyanov qilmishlari

tasvirlanadi. Ammo hikoyada Rasulov obrazi kiritilganki, imon-e'tiqodi butun, insonparvar kishi sifatida asardan joy olgan. "Ot bilan suhbat" hikoyasida ham sobiq tuzumning jirkanch kirdikorlarining mevasi-majruqlangan ot timsoli tasvirlangan. Hikoyada otning hukumatga qilgan yaxshiliklari evaziga faqatgina azob-uqubat topgani, hatto nasl qoldira olmasligi, yorug' jahonni ko'ra olmasligi tasvirlangan. Ya'ni bu hikoyda ham erksizlik mavzusi ko'tarilgan.

Said Ahmadning "Rostgo'y posbon" hikoyasida sho'ro tuzumining kirdikorlari bir posbon tilidan ochib tashlanadi va yozuvchi hikoyaga satirik ruh beradi. O'zligini, hatto ismini yo'qotgan yurtdoshlarimizga nisbatan nafrat uyg'otadi. Masalan, Kogon Ovchiyev Moskvaga borgach "Kagonovich" bo'lganini, "yoki Negmatxon Buxoriy Nekolay Buxorin " deyilishi-bilan xoinlarga nisbatan berilgan hukm edi.

Yozuvchining vatanparvarlik mavzususidagi eng yorqin hikoyalaridan biri "Oftob oyim"dir. Hikoyaga epigraf qilib Maqsud Shayxzodaning "Vatanni sevmoqni yurt otasiga sadoqatni yaponlardan o'rganish kerak",degan gapi olinadi. Ushbu hikoya ham qamoq lageridan olingan bo'lsa-da, bunda yapon xalqining vataniga bo'lgan muhabbati mohirona chiziladi. Hikoyada vatan burchga cheksiz sadoqat, fidoyilik tuyg'usi, betakror- marsiyadek mungli, ayni patda madhiya kabi mardona va mag'rur yangraydi. Lagerda do'st tutingan hikoyachi bilan yapon asiri Dyun orasidagi samimiy aloqalar, samuray Dyunning qismatiga oid rivoyatnoma hikoyasi, kamekadze burchini o'tay olmagan bu yigitning ruhiy istiroblari va halokati o'quvchini larzaga soladi. Sudzening onasi, benazir go'zal ayol geyshalar safiga

kirar ekan, vatan manfaatidan kelib chiqib shu ishni qiladi, og‘li xiyonati tufayli quvonchlaridan vos kechib, roxiblar libosini kiyib monastirga ketadi. Sudze eng quvonchli kunda, Vataniga ketish imkoni tug‘ilgan daqiqalarda burch, or-nomus tuyg‘usi tufayli o‘zini halok etadi; xasta samurai Dyun esa vatani tuprog‘iga qadam qoyib, qoni shu tuproqqa to‘ilganidan taskin topib jon beradi.

Hikoyada inson tuyg‘ulari va ichki kechinmalri chuqur hissiyot bilan aks ettiladi. Bu hikoya o‘zbek adabiyotida vatanparvarlik haqidagi eng yaxshi asarlardan bo‘lib qoladi.

Satirik ruh kuchli bo‘lgan “Qishdan qolgan koyasida insonlardagi bir qora illat qoralanadi. Ya’ni boshga kulfat tushganda Nasibjonga hech kim yordamm bermaydi va u ministr bo‘lganida qarindoshlarning laganbardorligi. Bunday manfaatparast, xudbin kishilar “qishdan qolgan qatg‘alarga qiyoslanadi.

Yozuvchining “Buqalamun bilan uchrashuvi hikoyasida xudbin o‘z nafsini qondirish yo‘lida hatto otasidan ham vos kechgan razil inson haqida so‘z boradi. Buqalamunga o‘hshash bunday insonlar qismati shu birgina Dyorov obrazida beriladi. Sho‘rolar davrida otasidan vos kechib, familyasini o‘zgartirgan, dindan qaytgan odam mustaqillik davrida endi xudojo‘y bo‘lib, otasini eslab qolishi, ya’ni muhitga qarab o‘zgarishi xuddi buqalamunga o‘xshaydi. Bu odamning o‘z qilmishiga yarasha jazo olishi, xuddi “jag‘I ayrilgan eski kalishdek darvozaning bir tamonidan qolib ketishi” ga o‘xsharib tasvirlanadi. Demak, ushbu hikoya navzusi ham dolzarb va munozarali. Chunki hayotda ham Diyorovga o‘xshagan “buqalamunlar” bor va yozuvchi bu illatni aynan mazkur hikoya orqali qoralashga muvaffaq bo‘ladi.

Insonlardagi salbiy xususiyatlarni satiric kulgi ostiga olgan adib hikoyalari ham kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Yuqorida kuzatganimizdek, Said Ahmadning mustaqillik davrida yaratgan hikoyalari mavzu jihatdan dolzarb va kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Yozuvchining “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi mavzusi ham xalqimiz boshiga tushgan qatag‘on dahshati bilan ifodalanadi. Hikoyani yozuchi “Sobiq sho‘ro tergovchilari qo‘lida azob chekkan yurtdoshlarimga bag‘ishlayman” deb boshlayman. Xalq orasida obro‘ topgan polvonning o‘g‘li juda ko‘p oilalarni yostig‘ini quritadi, otasini la‘natga qoldiradi. Jalol polvon davralarda kuragi yerga tegmasdan kurashsa-da, o‘g‘lining qilmishi polvonning qaddini bukadi. Juda ko‘p insonlarning umriga zomin bo‘lgan o‘g‘li xalqning qarg‘ishiga qoladi va xorlikda o‘lim topadi. Yozuvchi asarda shunday mavzuni ochib beradiki, o‘quvchi bundan ta’sirlanmasdan qolmaydi.

Kuzatadigan bo‘lsak, Said Ahmadning mustaqillik yillaridagi hikoyachiligining mavzu ko‘lami ko‘proq xotiralar va sho‘rolar davridagi illatlarni ochib tashlashga qaratiladi.

Adabiyot nazariyasidan ma’lumki, hikoyada obrazlar roman yoki qissadagidek ko‘p bo‘lmaydi. Asar g‘oyasini ham ochishda obrazlar salmoqli vazifa bajaradi. Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida voqealar bosh obraz tilidan hikoya qilinadi. Bunda Kimsanboy, Olimjon domla kabi obrazlar mavjud. Asar g‘oyasining ochilishida ham Kimsanboy va uning otasi Olimjon domla asosiy yuk tashiydi. Yozuvchi bu obrazlarning xarakter xususiyatlarini ochishda badiiy til vositalaridan, manolog, dialog, tush tasviri va badiiy detaldan unumli

foydalangan. Masalan, Kimsanboyning amalparast, shuhratparast ekanligini ko'rsatish uchun yozuvchi asarda Manzurov obrazini olib kiradi. Kimsanboy obrazi o'zining salbiy xususiyatlari bilan birga nomoyon bo'lsa-da, hikoya so'ngida u ko'ksida chizdirgan Stalin rasmidan qutilishni so'raydi. Ya'ni biroz bo'lsa-da xato qilganini tushunib yetadi. Lekin u baribir niyatiga yeta olmaydi. Uni otasi qarg'agan oq qilgan.

Olimjon domla esa iymonli-e'tiqodli, ma'rifatli inson sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu obraz o'zining xudojo'yligi, e'tiqodining yuksakligi bilan ajralib turadi. Hikoyadagi obrazlar o'zining xarakter xususiyatlari to'la ochilganligi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi Kimsanboyning ayanchli ahvolini ko'rsatish uchun uning lagerdan kelgandagi portretini chizadi. Kimsanboy lagerning o'zida-"zona"da qoldirildi. Chunki uning o'ng qo'li sinib bitib qolgan. Yurganda boshi u yoq-bu yoqaqa og'ib ketaveradi. Ko'zi ham xiralashgan. Oldida turgan odam tuman orasidan ko'rinayotganga o'xshayveradi. Lekin eshitish qobiliyati juda kuchli".

Ya'ni unga ota qarg'ishi tekkan. Natijada u hayotini achinarli tarzda o'tkazib, oxiri o'lim topadi.

Yozuvchining "Borsa kelmas darvozasi" hikoyasida ham bosh voqealar bosh obraz yozuvchining o'zi tomonidan hikoya qilinadi. Hikoyada Dadajon, Shirinbetov, Abdulla Gapparov obrazlari bor. Hikoya yozuvchi tilidan hikoya qilinadi va unda u bosh qahramon vazifasini bajaradi. Kitobxonda eng ta'sirli holat uyg'ota oladigan obraz-Dadajondir. Uning ozodlikka bo'lgan umidi puchga aylanadi. Yozuvchi bu obrazni shunday tasvirlaydi: "Bizning barakda o'n yilda

muddatini o'tab bo'lgan, bugun-erta ozodlikka chiqishni sabrsizlik bilan kutayotgan Dadajon degan andijonlik kishi bor edi. U ertadan kechgacha g'imirsib ketishga tayyorlanardi. Yo'lda kiyib ketish uchun o'ziga breznt qo'lqopdan chippak tikdi. Xomsurib choyshabdan kuylak tikdirdi. Dadajon o'n yillik azob-uqubatlar yuklini yelkasidan tushirib, ozodlik ostonasida entikib turardi. Nihoyat uni maxsus bo'lim vakili chaqirdi. O'n besh choqli maxbus uni kuzatib chiqdik. Dadajon qushdek yengil bo'lib ichkariga kirib ketdi. "Besh minut o'tmay, u yelkasida og'ir tosh ko'tarib kelayotgandek bukchayib chiqdi. nima bo'ldi, deb undan so'raymiz. U zo'rg'a "Yana besh yil" deya oldi, xolos.

Dadajon adoyi tamom bo'ldi. Bukchayib, bir oyda sochlari oppoq paxtaday bo'lib qoldi." ¹

Ushbu tasvirdan ko'rish mumkinki, lagerda begunoh odamlarning bir umr qolishi bu joining eshigi rostdan ham "borsa kelmas darvozasi ekanligini ko'rsatadi. Hikoyada bosh obraz sifatida Said Ahmadning o'zi harakast qilar ekan, uning ruhiy kechinmalari, azobi-yu tashvishlari ham jonli akslanadi. Buni yozuvchining o'z turmush o'rtog'I Saidaga yozgan maktublaridan ham ko'rish mumkin. Umuman olganda, hikoyada obrazlar o'quvchi ko'z o'ngida jonli va ishonarli tarzda akslanadi.

Yozuvchining "Ot bilan suhbat" hikoyasida ham bosh qahramon yozuvchining o'zi. Hikoya markazida ot turadi. Bu hayvonni yozuvchi asarga kiritar ekan, uning butun fojialarini ochib beradi. Ya'ni, bu

¹ Ahmad Said. Qorako'z majnun. T. : 2001, 35-36 betlar.

hayvon obraz darajasiga ko'tariladi. Uning tashqi holati, ko'rinishi kishini e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Yozuvchi xuddi otning boshidan o'tkazganlarini azobini o'zining tilidan bayon qiladi. "Oftob oyim" hikoyasi personajlari yaponlar. Dyun, Sudze, yozuvchining o'zi hikoya voqeasida harakatga keltirgan obrazlar sanaladi. Hikoyada Dyun ham, Sudze ham o'zlarining haqiqiy yapon farzandi ekanligini ko'rsatgan obrazlar sifatida ko'zga tashlkanadi.

Sudze obrazining portreti shunday chizilgan: "Lagerimizda 34 nafar yaponning hammasi o'sha yerda. Sudze hamyurtlariga qo'shilmas, korxona zinasida boshini egib o'tirib hayol suradi. U yaponlarga xos bo'lmagan baland bo'ya, xuddi sirkdagi polvonlarga o'xshagan, muskullari bo'rtib chiqqan, juda baquvvat yigit edi.

Sudze har tong hali quyosh ko'tarilmay korxona tomida paydo bo'lardi. Shaxtalardan chiqarib tashlangan tog'-tog' rudalar orqasidan quyosh chiqquncha haykaldek qotib turar, yuziga oftob urilishi bilan ikki qo'lini baland ko'tarib quyoshga nimalardir deb iltijo qilardi".²

Sudze vatani oldida o'z burchni bajara olmagan uchun yurtdoshlari oldida yuzi qora. Shuning uchun ham u yurtdoshlariga qo'shila olmaydi. Shunday bo'lsa-da Sudze o'z vatani tarafga qarab nimalarnidir aytadi. Uning tashqi ko'rinishidan jur'atsizligi uchun afsus chekayotganligini bilsa bo'ladi. Sudze o'layotganda ham "Japan! Japan! Mening vatanim, Japan!" deya olamdan o'tadi. Bundan ko'rinadiki, yaponlar o'z vatanparvarligini isbotlaydi. Hikoyaning asosiy obrazlari ham yapon millati vakillarini tashkil etadi.

² O'sha asar. 75 bet.

“Qorako‘z majnun” hikoyasida Saodat aya, Qumri, Bo‘rixon kabi obrazlar mavjud.

Bunda Saodat ayaning iti Qorako‘z ham hikoya g‘oyasini ochishga xizmat qigan. Bo‘rixon inson bo‘lsa-da, o‘z dinidan kechib, tilini, ota-onasini unutadi.

Qorako‘z esa it bo‘lsa-da o‘z e‘tiqodiga sodiq vafodor.

Yozuvchi Bo‘rizonning uyiga qaytib kelgandagi ahvolini shunday tasvirlaydi:

“Bo‘rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. ...begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turadi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To‘g‘ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? O‘ylab-o‘ylab, “Salyam!” dedi. Jigarlari kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi”.

Bo‘rixon Rossiyaga ketgach, hatto tilini ham unutgan. Yozuvchi bu obraz orqali dindan qaytgan odamni ko‘rsatib beradi.

Hikoyadagi it obrazi o‘zining sadoqatliligi bilan ham muhim o‘rin tutadi.

Adibning “Uchinchi minora” hikoyasida esa Jumonbobo obrazi o‘z xarakter xususiyatlari bilan nomoyon bo‘ladi. Bu hikoya orqali kechirimlili bo‘lishlik insonlar uchun kerakli fazilat ekanligi anglashiladi.

Demak, yozuvchining ushbu hikoyalaridagi obrazlar o‘zining yorqin va qiziqarli xarakter xususiyatlari bilan o‘quvchida katta taassurot qoldiradi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning mustaqillik davridagi ijodi sermahsul bo'ldi. Ayniqsa, yozuvchining bu davrda yozgan hikoyalari o'zining badiiy-estetik yetukligi bilan ajralib turadi.

Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o'tmishning inson ro'hiyatiga ta'sir qilgan momentlarini kichik epik janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Said Ahmad mahorati ko'zga tashlangan.

Yozuvchining har bir hikoyasi badiiy mustahkamligi bilan adabiyotshunoslar e'tiborini ham o'ziga jalb etdi.

Undagi tasvir uslubi, badiiy tilning betakrorligi, obrazlar yorqinligi yozuvchi mahoratidan darak bergan. Dolzarb mavzularni asar kompozitsiyasiga singishi ham hikoyalarning badiiy mustahkamligini belgilagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008.
2. Ahmad S. Qorako'z majnun. –T.: “O‘zbekiston”, 2001.
3. Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: “Sharq”, 1998.
4. Ahmedova Sh. Said Ahmadning kulgi yaratish mahorati. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1993, № 5-6.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002.
6. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –T.: 2005.
7. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. –T.: “Fan”, 2007.
8. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: 2006.